



КОМПОЗИТСИОН ҚУРИЛИШ ИНОНЧ АЙТИМЛАРНИНГ МУҲИМ КАТЕГОРИЯСИ СIFATIDA

Mo'minova Nodira Mahmudovna,
Qo'qon universiteti Andijon filiali
O'zbek va rus filologiyasi kafedrasida
dotsenti v.b., f.f.b.f.d.(PhD)

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 64
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1414>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

o'zbek folklori, inonch ayrimlari, irim-sirlar, kompozitsiya, xalq dunyoqarashi, etnolingvistika, ramziylik, og'zaki ijod

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qatlamini tashkil etuvchi inonch ayrimlari (irim-sirlar)ning kompozitsion tuzilishi tahlil qilinadi. Inonch ayrimlari xalqning qadimiy dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari va hayotiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ichki tuzilishi aniq semantik va mantiqiy izchillikka ega. Tadqiqot jarayonida inonch ayrimlarining kirish qismi, asosiy mazmuni va xulosaviy unsurlari aniqlanib, ularning barqaror va o'zgaruvchan komponentlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, sabab-oqibat munosabatlari, shartlilik va ramziylik kabi kompozitsion belgilar ochib beriladi. Maqolada etnolingvistik va folklorshunoslik yondashuvlari asosida inonch ayrimlarining shakllanish omillari hamda ularning xalq tafakkuridagi funksional o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek folklori janrlarini tizimli o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy meros bo'lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ijtimoiy-axloqiy qarashlari mujassamdir. Ushbu meros tarkibida inonch ayrimlari (irim-sirlar) alohida o'rin tutadi. Ular inson hayotining kundalik ehtiyojlari, tabiat hodisalari hamda kutilayotgan voqea-hodisalar bilan bog'liq tasavvurlar asosida yuzaga kelgan. Inonch ayrimlari faqatgina ishonch yoki xurofot sifatida emas, balki xalq tafakkurining badiiy va mantiqiy ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir. Shu jihatdan, ularning kompozitsion tuzilishini o'rganish mazkur janrning ichki qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarda inonch ayrimlarining mazmuniy va funksional xususiyatlari qisman yoritilgan bo'lsa-da, ularning kompozitsiyasi masalasi yetarli darajada tizimli tahlil etilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Folklorshunos I.T.Yormatov o'zbek xalq inonch aytimlari tarkibini quyidagi uch muhim uzv bilan belgilagan:

1. Sabab komponenti (shartli belgisi –S);
2. Oqibat komponenti (shartli belgisi –O);
3. Chora-tadbir komponenti (shartli belgisi –T)¹.

Shuningdek, rus tilidagi ilmiy manbalarda (Кулькова М.А.) bu uch muhim komponent "Hodisa" ("Событие"), "Bashorat" ("Прогноз") va "Ogohlantirish qismi" ("Страховочная часть") deb yuritiladi².

Biz ham har ikki olimning uch birlik formulasini ma'qul deb topgan holda oqibat uzvi mohiyatini to'laroq yoritish maqsadida natija so'zini ham qo'shдик. Bizningcha, inonch aytimlar kompozitsiyasi sabab, oqibat va chora-tadbir komponentlaridan tarkib topishi bilan birga oqibat uzvi o'zida natijani ham ko'rsatadi. Shu bois biz inonch aytimlar tarkibini sabab-natija va chora-tadbir uzvlaridan iborat deb hisoblaymiz. Bu holda natija uzvi o'zida bashorat, ta'bir, ogohlantirish, tabu, taqiqni o'zida birlashtiradi.

Biz yuqorida inonch aytimlar folklorning barcha janrlariga xos bo'lgan ko'p komponentlik xususiyatiga ega ekanligini aytib o'tgan edik. Shu jihatdan olib qaralganda, mazkur janr namunalari ichki tarkibiy qismlari uzoq kechgan tarixiy-folkloriy jarayonda quyidagi ikki turkumga ajralganligi qiyosiy tahlillarimiz natijasida ayon bo'ldi:

1. Kompozitsion jihatdan tugal komponentli inonch aytimlari.
2. Kompozitsion jihatdan notugal (qaysidir uzvlari tushib qolgan, bir yoki ikki komponentli) inonch aytimlari.

Obrazli qilib aytgudek bo'lsak, Piskom, Ugom va Chatqol daryolarining o'zaro qo'shilishidan Chirchiq daryosi hosil bo'lgani singari inonch aytimining matni sabab, oqibat va chora-tadbir uzvlarining leksik-semantik jihatdan birlashishi tufayli shakllanadi.

Natijalar. O'zbek inonch ayrimlarining kompozitsiyasi ularning mazmuniy yaxlitligi va barqaror semantik tuzilishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot materiallari shuni ko'rsatadiki, inonch ayrimlarida kompozitsion qurilish asosan sabab-oqibat munosabatiga tayanadi. Ya'ni muayyan harakat yoki holat (sabab) va uning kutilgan natijasi (oqibat) aniq mantiqiy bog'liqlikda ifodalanadi. Bu jihat inonch ayrimlarining xalq tafakkuriga xos pragmatik yo'nalganligini ko'rsatadi.

Ko'plab inonch ayrimlarida shartlilik unsuri yetakchi o'rin egallaydi: "agar" modeli orqali kelajakdagi hodisaga ta'sir ko'rsatish g'oyasi ilgari suriladi. Bunday kompozitsiya insonning noaniqlikdan qo'rquvi va uni nazorat qilish istagi bilan bog'liq. Shuningdek, ramziy belgilar va obrazlar inonch ayrimlarining ta'sirchanligini oshirib, ularning esda saqlanishini osonlashtiradi. Ayrim namunalar ixcham, lakonik shaklda bo'lsa-da, mazmunan chuqur falsafiy qatlamni o'zida mujassam etadi. Shu tariqa, kompozitsion tuzilish inonch ayrimlarining nafaqat shakli, balki funksional barqarorligini ham ta'minlaydi. Kompozitsion jihatdan tugal komponentli inonch aytimlari shart va natija ergash gapli qo'shma gap shaklida bo'ladi. Masalaning mohiyati aniq-ravshan anglanmog'i uchun bir misolni keltirib o'tamiz: Uyga isiriq solinsa, uydin jinlar va ilm-u amallar ko'tariladi. Bolaga isiriq solinsa, unga ko'z tegmaydi. Isiriq bilan bog'liq inonch aytimlarda yovuz ruhlar, jinlar bilan bog'liq mifologik qarashlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida isiriq bilan bog'liq ma'lumot keltiriladi: "... isiriq; bolalarning boshlariga toshadigan yaralarni yoki ko'z tegishidan bolalarni davolaganda aytiladigan so'z; [isiriqni] tutatiladi va bolaning yuziga tutunini isiriq-isiriq ("e jin, es-hushingni yo'qot!") deb tutiladi."³ Ushbu ma'lumotdan isiriqning bolalarga ko'z tekkanida tutatilishi, isiriq so'zining lug'aviy ma'nosining o'zi jinlarga murojaat va ularni hushsiz holatga tushirish ekanligini anglaymiz. Shuningdek, inonch aytimlarning tarixan turli marosimlar va rituallar bilan bog'liq holda shakllanganligini ko'ramiz. Hozirgi kunda ham xalq inonchlariga ko'ra, uyga isiriq solinsa, uydin jinlar va ilm-u amallar ko'tariladi. M.Koshg'ariy keltirgan ma'lumotdan bolaga ko'z tegishi yoki ko'z tegmasligi (Varianti: uyga jin va ilm-u amallarning o'rnashishi) – sabab (S), isiriq solish orqali jinlarni quvish – chora-tadbir (T), bolani ko'z tegishdan saqlash (varianti: uydin jinlar va ilm-u amallarning ko'tarilishi) – natija (N) uzvi sanaladi.

Quyidagi turna, qarga va ot bilan bog'liq inonch aytimlar shart va natija ergash gapli qo'shma gap strukturasiga ega:

Turnalar osmonda doira hosil qilib o'yinga tushsa, kunlar isiydi. Turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta boshlanadi. Turnalar kuzda baland uchsa, kuz uzoq vaqt davom etadi. Turnalar qichqirsa, yomg'ir yog'adi.

¹ Ўзбек халқ ирим айтимларининг жанр хусусиятлари / Ўзбек фольклоршunosлиги. Антология. – Тошкент: Ўзбекистон миллий ensiklopediyasi, 2017. – Б.478.

² Кулькова М. А. Когнитивно-смысловое пространство народной приметы. Автореферат дисс. ... док. фил. наук. – Казань, 2011. – С.76.

³ Махмуд Кошгарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. 1 том. – Тошкент: Фанлар академияси, 1960. – Б.125.

Qarg'a qag'illasa yoki pastlab uchsa, qor yog'adi. Qarg'alar to'da-to'da bo'lib uchaversa, yomg'irdan darak. Ko'k qarg'aning kelishi - sovuqning kelishi, ketishi - sovuqning tugashi.

Ot suvni, kam ichib, mudray boshlasa, tezorada yog'ingarchilik bo'ladi. Ot boshini silkitib, yuqoriga talpinaversa, havo buziladi. Ot xirillasa, havo ayniydi, pishqirsa - issiq bo'ladi⁴.


Tugal tarkibli inonch aytimlaridagi natija-oqibat komponentining sintaktik-semantik vazifasini ham rad etish mumkin emas. Tugal tarkibli inonch aytimlarining natija uzvi muhimligi uni kontekstdan tushirib qoldirganimizda bilinadi. Masalan, "bolaga ko'z tegishi yoki ko'z tegmasligi" ... isiriq solinadi. Yoki, "uyga jin va ilm-u amallarning o'rnashmasligi" ... isiriq solinadi.

Muhokama. An'anaviy inonch aytimlari tarkibidagi chora-tadbir komponenti kundalik ro'zg'or va turmush hodisalari tufayli yuzaga kelgan muammoning optimal yechimini o'ylab topish, tushkunlikka tushgan odamlarga ruhan bo'lsa-da, taskin berish hamda og'ir ko'rguliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida shakllantirilgan. Semantik jihatdan olib qaralganda unda natija-oqibat komponentiga qarama-qarshi ma'no mavjud bo'lib, erkin faoliyat uchun to'sqinlik qilib turgan natija-oqibatni bartaraf etishning yo'llari bayon etiladi.

Ajdodlarimiz hayotiy-maishiy tajribalarga asoslanib, chora-tadbirning har qandayini emas, balki real salbiy hodisani ortiga qaytaradigan, uning ziyon-zahmat yetkazishiga yo'l qo'ymaydigan fikr-jumalarni o'ylab topganlar. Salbiy voqea-hodisaning oldini olish uchun maishiy hayotda sinovdan o'tkazilgan ko'pgina yo'l-yo'riqlardan foydalanilgan, albatta. Dono xalqimiz xatarning oldini oluvchi tadbirni o'ylab topishda sabab komponentiga doir voqea-hodisa belgilari doirasidan chiqib ketmaslik talabiga amal qilgan. Masalan, "Kechqurun tirnoq olinsa, oilasidan kimdir o'ladi. Qozonni kechki ovqatdan so'ng suvga to'ldirib qo'yilsa, egasiga rizq tilab turadi. Beshikdagi yostiq ostiga kulcha qo'yilsa, chaqaloqning rizqi mo'l bo'ladi. Qizlar ovqat pishirayotganida kapgirni qozonga ursal, qaynonasi ezma bo'ladi. Qo'lida xoli bor qiz mehnatsevar va ro'zg'orbop bo'ladi. Dasturxonga og'zini artgan qizga mo'ylov chiqadi. Yostiqqa o'tirsa, boshi og'riydi. Dasturxonning yirtig'i bo'lsa, savob oyoq ostida qolib ketadi. Sigirning dumi uzun bo'lsa, sersut bo'ladi. It oldingi oyoqlari bilan yuzini yopsa, yomg'ir yog'adi. Kimki ovqat yeyishni kattalardan avval boshlasa, ulardan oldin o'ladi. Sumalakning toshi darvoza ustiga osib qo'yilsa, omad keltiradi...⁵".


Quyidagi misollarda ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin:

Xontaxta burchagiga ro'para o'tirsa,




yetti yil turmushga chiqmaydi, dasturxon chetini qayirib qo'yish kerak.

Supurgi odamga tegsa,




falokatga uchraydi, shoxchasidan bir dona sindirish kerak/

Chap qovog'i uchsa,



yomonlik bo'ladi, barmog'ini o'pib, uch marta qovog'iga bosiladi.

Pichoq qirrasini yuqoriga qarab qolsa,




qonsiragan bo'ladi, temirdan yasalgan narsaga tekizib qo'yish kerak.

⁴ Bunday inonch aytimlar O'zbek tili, adabiyoti va foliklori instituti arxivida ko'plab yozib olingan: ZO'FA. Inv. № 1804/112. Qo'shiq, bayt, irim, topishmoq, maqol. 1988-yilda Mamatqul Jo'raev yozib olgan; Inv. №1443. Afsonalar, irim va maqollar. Rahmatilla Yusuf o'g'lidan Xodi Zarifov yozib olgan; Inv. №1801/1 (2). Irimlar, bolalar qo'shiqlari... M.Jo'rayev 1986-yil iyunda yozib olgan; Inv. №1828. Xalq taqviimi, irim-sirim, afsonalar. Shomamatov Nurillovan 1998-yilda yozib olingan; Inv. №1829/112. Xalq taqvimiga doir materiallar. M.Jo'rayev, M.Pirmatova 2005-yilda yozib olgan; Inv. №2052. Irim-sirimlar, qo'shiqlar... A.Shukurovadan yozib olingan;

Inv. №2059/2. Ob-havo bilan bog'liq kuzatishlar va irimlar-sirimlar. S.Xalikulovadan yozib olingan; Inv. №2142. Joy nomlari va havo o'zgarishi haqida. Z.Qalqonovadan 1991-yilda yozib olingan.

⁵ Bular haqida qarag. Ўзбек халқ ирим айтмларининг жанр хусусиятлари / Ўзбек фольклоршунослиги. Антология. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б.476.

Chap quloq qizisa,



birov yomonlayotgan bo'ladi, yoqa tishlansa, yomonlayotgan odam tilini tishlab oladi.

Inonch aytimlarining sabab va natija-oqibat uzvlariga xos bo'lgan variantlilik xususiyati chora-tadbir komponentiga ham taalluqlidir. Lekin ularning variantlari soni asosan uchtdan oshmaydi. Buning sababi asrlar davomida ba'zan chora-tadbir mazmuni butunlay yo'qolib,

inonch aytimi ikki uzvli holatga kelib qolishi hollari bilan izohlanadi. Endi chora-tadbir komponentining xalq xotirasida saqlanib qolgan ayrim namunalari bilan tanishib o'taylik.

1. Pichoqning qirrasini yuqoriga qarab qolsa, qonsiragan bo'ladi.

- a) pichoqning qirrasini temirga tekizish kerak;
- b) pichoqning qirrasiga qon surkab qo'yish kerak.

2. Yomon xabar eshitsa, yomonlik unga ham yetadi.

- a) uch marta yoqasini tishlash kerak;
- b) devorga uch marta urish kerak;
- d) chap tomonga uch marta tufdash kerak.

3. Chillali uyga kechqurun kirsa, ins-jinslar o'sha odam bilan kiradi. ustidan hadlab o'tish kerak.

- a) kirayotgan odamning ustidan olov aylantirish kerak;
- b) kaftgirni ostonaga qo'yib
- c) mevali daraxtni quchoqlab, so'ng uyga kirishi kerak.

4. Shamollab qolsa, ko'ziga uchuq (terskan) chiqqa boshlaydi.

- a) qo'lini uch marta o'pib, ko'zga surtib "suyunayin" desa, uchuq chiqmaydi;
- b) oltita halol va oltita harom jondorlarning "ketiga bor" deb barmog'ini o'pib ko'ziga surkasa, terskan chiqmaydi.

5. Qiz bola kechqurun ko'chaga chiqsa, yelkasiga shayton minib oladi.

- a) pichoq bilan chiqish kerak;
- b) yosh bo'lsa ham o'g'il bola bilan chiqish kerak.

6. It kechqurun osmonga qarab uvlasa, kimgadir ajal kelayotgan bo'ladi.

- a) ko'chaga qoziq qoqib qo'yilsa, ajal qoziqqa qaytib ketadi;
- b) itni ko'chaga chiqarib yuborilsa, o'z jonini beradi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar o'zbek inonch ayrimlarining kompozitsiyasi xalq og'zaki tafakkurining mantiqiy va semantik izchilligini aks ettirishini ko'rsatdi. Inonch ayrimlari qat'iy sabab-oqibat munosabatiga asoslangan bo'lib, ularning kompozitsion qurilishi shartlilik, ramziylik va pragmatik yo'nalganlik kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Ushbu unsurlar xalqning hayotiy tajribasi, tabiat hodisalarini anglashga bo'lgan intilishi hamda ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki,

inonch ayrimlarining ixcham shakliga qaramay, ular murakkab mazmuniy qatlam va barqaror ichki tuzilishga ega. Kompozitsion tahlil mazkur janrni faqat xurofot sifatida emas, balki xalq dunyoqarashining badiiy-mantiqiy modeli sifatida talqin etish imkonini beradi. Mazkur xulosalar o'zbek folklorini janrlararo qiyosiy o'rganish hamda etnolingvistik tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аникин В.П. О «логико-семиотической» классификации пословиц и поговорок: Текст // Русский фольклор: историческая жизнь народной поэзии. — Л., 1976. - Вып. XVI. — С. 263-278.

2. Аргынбаев Х. Некоторые обычаи и поверья казахов, связанные с соскозовотством // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. — М., 1975. — С.76-84.

3. Барли Н. Структурный подход к пословице и максиме // Паремиилогические исследования. — М., 1984. — С.138-149.

4. Ўзбек халқ ирим айтимларининг жанр хусусиятлари / Ўзбек фольклоршунослиги. Антология. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б.478.

5. Кулькова М. А. Когнитивно-смысловое пространство народной приметы. Автореферат дисс. ... док. фил. наук. – Казань, 2011. – С.76.

6. Маҳмуд Кошғарий. Тўркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. 1 том. – Тошкент: Фанлар академияси, 1960. – Б.125.